

PLASTIK CHQINDILARNING ATROF -MUHITGA TA’SIRI

Xudarganova O.Q , Sattorova F.R.
Urganch davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, plastik chqindilarning atrof-muhitga ta’siri, ekologik muhitni yaxshilash bilan birga hozirgi kunda haddan ziyod plastik chqindilarning ko’payib ketishi ekologik holatning buzilishiga, atrof muhitning ifloslanishiga muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Utilizatsiya, havo kemalari, plastmassa, antropagen omillar.

Аннотация:

В данной статье рассматривается рациональное использование природных ресурсов, влияние пластиковых отходов на окружающую среду, а также проблемы, связанные с увеличением количества пластиковых отходов, что становится важным фактором нарушения экологического баланса и загрязнения окружающей среды.

Ключевые слова: воздушные суда, пластмасса, антропогенные факторы, утилизация.

Annotation:

This article discusses the rational use of natural resources, the impact of plastic waste on the environment, and improving the ecological environment. It also highlights how the excessive increase of plastic waste today serves as a significant factor in environmental degradation and pollution.

Keywords: Aircraft, plastic, anthropogenic factors, utilization.

Kirish

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, global ekologik muammolarga jiddiy qarala boshlandi. Bunga fan-texnika, iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, antropogen omillarning tabiatga ta’sirining kuchayishi natijasida biosfera ekotizimlarining buzilishi, cho’llanish va sayyoramizda haroratning oshib borishi va shu kabi muammolar asos bo’la oladi. Ekologik muammolarning keskinlashuvi yerdagi hayotga xavf tug’dirmoqda. Ana shunday muammolardan biri atrof-muhitning chiqindilar bilan ifloslanishi hisoblanadi. Tahlillarga ko’ra, deyarli barcha davlatlarda qattiq maishiy chiqindilar miqdori aholi jon boshiga har yili bir foizga ortib bormoqda. Mamlakatimizda iqtisodiy-ijtimoiy o’sish hisobiga bu ko’rsatkich 7 million tonnaga yetib, yiliga 2 foizdan o’smoqda. Ekologiya sohasida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislarning aniqlashicha, hozirgi kunda insoning xo’jalik faoliyati natijasida dunyo bo’yicha yiliga 105-110 mlrd tonnaga yaqin chiqindi yuzaga kelmoqda. Chiqindilar qattiq, gazsimon, suyuq holatda bo’lib, ularning bir qismi havoga, boshqasi suvga, tuproqqa, o’simlik va hayvonot dunyosiga o’tib, to’planib boradi. Chiqindilarning yillar davomida to’planib borishi hozirgi kunda inson hayoti uchun o’ta xavfli ko’plab muammolarni yuzaga keltirmoqda. Troposferadagi suv bug’lari, uglerod ikki oksidi, metan, xlor, uglerod, azot oksidi, ozon va boshqalarning

mavjudligi tufayli atmosferaning quyi qismidagi havoning oʻrtacha harorati 150 C ni tashkil etadi. Shuni taʼkidlash joizki, bu chiqindilarning 80 foizini organik moddalar tashkil qiladi va ularni qayta ishlash natijasida katta miqdordagi energiya va energiya tashuvchilarni ishlab chiqarish mumkin. 1980 yillarda havoga 5 milliard uglerod, 100 mln tonna oltingugurt chiqarilgan boʻlsa, hozirgi kunda uglerod miqdori 6 milliard tonnaga yetadi. CO₂ ning havo tarkibidagi miqdori 0,4-2,5 milliard tonnaga koʻpayib bormoqda. Mahalliy va global ekologik muammolarga (shaharlardagi havoning ifloslanishi, issiqxona effekti yoki okeanlarning haddan tashqari ovlanishi kabi) bagʻishlangan sosiologiya kamida uchta tadqiqot yoʻnalishida faol ishlaydi: ekologik muammolarning paydo boʻlishi nazariyalari, atrof-muhitga munosabat va keng jamoatchilikning hatti-harakatlari va korporativ ishtirokchilarning ekologik hatti-harakatlari (tadbirkorlik subʼyektlari, ekologik harakatlar va tashkilotlari hamda davlat) kabilar kiradi. Inson tomonidan biosferaga koʻrsatilayotgan taʼsirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning oʻzaro taʼsirini uygʻunlashtirish, inson va tabiatning oʻzaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb boʻlib bormoqda. Hozirgi kunda turli hil kimyoviy moddalarning koʻp qoʻllanishi, transport va havo kemalarining koʻpayib ketishi, shahar va zavod-fabrikalarning yiriklashuvi, plastik chqindi kabi koʻplab omillar atrof muhitning buzilishiga ayrim joylarning koʻplab plastik chqindilar bilan ifloslanishiga imkon yaratadi. Shuni ham aytish joizki ozon qatlamining yemrilishi, iqlim oʻzgarishi, togʻ va muzliklarning erishi kabi bir qancha muammolarni sanab oʻtishimiz lozim. Sanoat chqindilarini chqindi turiga qarabishlab chiqarish chqindisi va qayta ishlanadigan chqindilarga boʻlinadi. Maʼlumki hamma chqindini koʻmib yoki kuydirib boʻlmaydi ularning bir qismi qayta ishlanib tarkibidagi zarur moddalar ajratib olinadi. Qattiq chqindilarni oʻz turiga qarab utilizatsiya qilinsa ulardan foydalanish imkoni yanada oshadi.

Asosiy qism.

Hozirgi kunda yirik shaharlarda sanoat chqindilari juda koʻplab chqindi chqadi. Masalan: Eng katta shaharlardan biri boʻlgan Maskva shahrida qattiq, uy-roʻzgʻor chqindilari bir odam boshiga bir yilda 300 kg toʻgʻri keladi. Shundan qogʻoz va kartonlar 28,8% , metal jisimlar 5,7% , oziq-ovqat chqindilari 28,5% , plastmassa 5,1% , tekstil 3,1% , oyna 4,4% , yoqilgʻi materiallari 1,8% , inert materiallari 3,4% , mayda chang chqindilari 19,2% chqindi hajmini tashkil qiladi.

Plastik chqindilarning atrof muhitga tasiri jiddiy muammo boʻlib , bu global miqyosda tabiatga , insonlarga va hayvonlarga zarar yetkazadi. Plastik chqindilar biologik parchalanishga uchramaydi, shuning uchun ular uzoq vaqt davomida tabiatda qoladi va landshaftlarda, daryolarda, okeanlarda toʻplanib qoladi.

Tadqiqot natijalari Oʻzbekiston iqtisodiyotida ishlatiladiga plastik hajmi sezilarli darajada oshganini koʻrsatadi. Oʻzbekistonda yiliga 10,2 mln tonna chqindi hosil boʻlib uning 10,3%i plastmassadan iborat. 2022-yilda plastik hajmi 2013-yilga nisbatan 2,5 baravarga oshdi. Plastik koʻp funksiyali va arzon material sifatida qadoqlash va toʻqimachilikdan tortib qurilish va tibbiyotgacha boʻlgan keng sohalarda qoʻllanilmoqda. Biroq uning chidamliligi va uzoq muddat parchalanishi ekologik inqirozdir. Shuni ham aytib oʻtish joizki yelim xaltalar yerga koʻmilgan taqdirda ham

200 yilcha bazi manbalarda 400-500 yillar o'z holini saqlab turadi chirimaydi. Bu esa o'z navbatida tuproq unumdorligiga tasir qilib, ifloslanish darajasini oshiradi. Okeanlarga tashlangan chiqindilar orasida esa plastik idishlar har yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi ishlab chiqarilayotgan plastik idishlarning yarmi so'nggi 15-yil ichida ishlab chiqarilgan. Eng yomon sonlar 1950-yildagi 2,3 million tonnadan 2015-yilgacha 448mln tonnagacha o'sgan. 2050-yilga kelib bu ko'rsatkich 2 barobar ko'payishi kutilmoqda. Hozirgi okeanlar qirg'og'idagi chiqindilarning 73%i plastik idishlardan iboratdir. Chiqindi turlari. Shahar posyolka va qishloqlarni toza tutishning epidemiologik va gigienik ahamiyati juda katta. Turar joylarni tozaligi, obodonligi irrigasiya ariqlaridan suvlarni oqib turishi, daraxtzor va ko'kalamzorlarni mavjudligi yuqumli kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. (turar joylarni tozaligini saqlash va tashkil qilishda rejali tashkiliy sanitar texnik va xo'jalik tadbirlarni ishlab chiqiladi).

Shahar va qishloqlarning aholi yashaydigan joylarda turli xo'jalik chiqindilarni to'planishi patogen mikroblar to'planishiga olib keladi. Aholi turar joylarini toza tutish uchun chiqindi axlatlarini o'z vaqtida yig'ib, olib chiqib ketish va zararsiz holatga keltirish hamda ba'zi bir chiqindilarni (qog'oz, latta, paxta, temir, shisha va oynalarni) yuziga ishlashga jo'natishi lozim. Axlatlar tezda zararsizlantirilmasa, u tashqi muhitni, ya'ni atmosferani, suv zalarini va tuproqni ifloslantiradi. Uy xo'jalik axlatlari, oziq-ovqat chiqindilari va boshqalar juda ko'p organik moddalarni ushlagani uchun tezda chiriy boshlaydi. Oqibatda turli gazlar: ammiak, serovodorod, metan, indol, skatol va boshqalar paydo bo'ladi va yog'ingarchilik oqibatida er yuzasidan yuvilib chiqindilar najas, siydik xojatxonalardan yer osti suvlariga sizilib uyb ularni ifloslantirishi mumkin. Chiqindi axlatlarda turli mikroorganizmlarni mavjudligi va ularni uzoq vaqt yashashlari aniqlangan. Jumladan qorin tifi, paratif, ichburug', sip, kuydirgi va boshqalar axlatlar tarkibida uchraydi. Axlat va chiqindilar faqtgina turli infeksiya va gijja kasalliklarini keltirib chiqarib qolmay, ular odamlarda hazm qilish, ko'ngil aynish holatini chi qaradi. Hamma chiqindilar mikki guruhga bo'linadi, suyuq va qattiq chiqindilar. Ikki guruh chiqindilarga bo'linadi. Xojatxonadan chiqadigan najas, siydik. Cho'milishda, xona pollari va kirni yuvganda hosil bo'ladigan chiqindi suvlar. Xo'jalik, sanoat korxonalari, inshootlar chiqindi suvlari chiqadi. Suyuq chiqindilar bo'linadigan chiqindi, axlatlarni yo'q qilish uchun har xil tadbirlar qo'llaniladi. Qattiq chiqindilar uy chiqindilar axlatlari, ko'cha supindisi, jamoat ovqatlanish korxonalarining axlatlari, sanoat korxonalari, savdo ob'ektlarining axlatlari, go'ng, hayvonlarni o'lik tanasi, qurilish axlatlaridir. Ifloslanishlar bo'yicha hozirgi kunda plastik idishlar yetakchi o'rinni egallagan. Atrof-muhitga katta miqdorda plastik chiqindilar tashlanmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, 90 foiz dengiz qushlari tanasida ma'lum miqdorda plastik jismlar borligi aniqlangan. Plastmassaning ifloslanishi Yer yuzasiga, suv yo'llari va okeanlarga yomon mintaqalarda choralarda ko'rilib kerilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda bugungi milliy mustaqilligimiz sharoitida vatanimiz tabiatiga, atrof muhitga, tabiatga nisbatan hurmat, ehtiyotkorona munosabat shu bilan birga mas'uliyat bilan qarash butun dunyoda albatta jamiyatning rivojlanib borishi bilan birgalikda insoniyatning tabiatga bo'lgan tasiri yanada takomillashtiradi. Vujudga kelayotgan ekologik noxushliklarning bosh sababchisi tabiiy jarayonlar bo'lsada, biroq

ular antarpagen omil inson xo'jalik faoliyati ayniqsa sanoat chiqindilarini qayta ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liqligini esimizdan chiqarmasligimiz lozim. O'zbekiston ekologiyasini yaxshilash uchun mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik tanazulning oldini olish uchun insonlar orasida qadimdan ma'lum bo'lgan ekologik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz lozim. Chiqindilar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuniga chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida hisobga olish va nazorat qilish, chiqindilarni ko'mib tashlash va utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrini yuritish, chiqindilarni transchegaraviy tashish kabi faoliyat turlari hisobiga «chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish» tushunchasi mazmuni kengaymoqda. Shuningdek, sanoat chiqindilarini va maishiy chiqindilarni maxsus texnik moslamalarsiz zararsizlantirish taqiqlanmoqda.

Bugungi kunda aholining ham atrof – muhit haqidagi bilim ko'nikmalarini oshirish, ularga zarur tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Tabiatni asrash kabi insoniy burch va majburiyatlarimizni chuqur anglab yetshimiz bizdan kichik o'sib kelayotgan yosh avolda yetkazishimiz va kattalarning nasihatlariga quloq solishimiz ham ahloqiy, ham manaviy yetuklikimiz dalili hisoblanadi shu bilan birga insoniylik fazilatimiz hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- 1 . D Yormatova sanoat ekologiyasi Toshkent 2007
- 2 . O Qudratov, T G'aniyev Hayot faoliyat xavfsizligi Toshkent mehnat 2004
- 3 . T.A.Ergashev A.E.Ergashev . Hidroekologiya Toshkent 2020
- 4 . Konstantinov V.M, Chelidze Yu.B Tabiatdan foydalanishning ekologik asoslari Masterstva 2002.
- 5 . WWW.gazeta.uz
- 6 . WWW.eco.uz